



MAHALLIY QUYONLARNI KALIFORNIYA ZOTLI QUYONLAR BILAN CHATISHTIRISHNING SELEKSION AHAMIYATI

Mamanov Doston

Quyunchilik genetikasi va seleksiya markazi, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada quyon go'shti ishlab chiqarishda chatishtirishning avzalliklari, chatishtirishni amalga oshirishdagi asosiy tamoyillar va juftlash natijasida olinadigan avlodlarning mahsuldorlik xususiyatlarining qay darajada yaxshilanishi kabi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mahalliy quyonlar, Kaliforniya quyon zoti, juftlash, chatishtirish, mahsuldorlik, tez yetiluvchanlik, belgilarning avlodlarga berilishi, juftlash sxemasi.

Kirish

Chorvachilik yalpi ichki mahsulotning 13% qismini, qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotining qariyb 50%-ini tashkil qiladigan muhim iqtisodiyot tarmog'i sanalanadi. Shu o'rinda aytish mumkinki kun sayin soni oshib borayotgan dunyo aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash soha oldidagi dolzarb vazifalardandir. Quyunchilik tez yetiluvchan chorvachilik tarmog'i bo'lganligi bois, oz fursatda aholini sifatli, eng muhimi parhezpob go'sht mahsulotiga bo'lgan talabini qondirishda muhim ko'makchi bo'lib xizmat qiladi.

Quyunchilik keyingi yillarda mamlakatimizda rivojlanib borayotgan sohalardan hisoblanadi. Bugungi kunda aholi xonadonlarida, yirik chorvachilik xo'jaliklarida ham quyonlar parvarishlanib kelinmoqda. Endigi muhim vazifa esa yangi yuqori mahsuldor quyon zotlarini yaratish, mavjud quyon zotlarini takomillashtirish va mahsuldorligini oshirish chorvachilik ilmi oldidagi muhim vazifadir.

Tadqiqot uslubiyati va natijalar tahlili

Tadqiqotlarimiz Quyunchilik genetikasi va seleksiya markazida olib borilmoqda va ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida quyonlar seleksiyasi borasida shu kungacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini adabiyotlar tahlili shaklida olib borildi.

Quyunchilik tarmog'ida quyonlar asosan ikki maqsadda mahsulot ishlab chiqarish (go'sht va mo'yna) va dekorativ maqsadlarda ko'paytiriladi va parvarishlanadi. Ayni vaqtda biz mahalliy quyonlarni Kaliforniya zotli quyonlar bilan chatishtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdamiz.

Mahalliy quyonlar mamlakatimizning o'zgaruvchan iqlim sharoitiga, turli kasalliklarga chidamliligi kabu xususiyatlari bilan madaniy quyon zotlaridan ajralib turadi. Mahalliy quyonlar go'sht-teri olishga ixtisoslashgan quyonlardir. Mahalliy quyonlar boshqa madaniy quyon zotlariga nisbatan kam mahsuldor hisoblanadi. Kaliforniya zoti go'sht yo'nalishidagi quyon zoti bo'lib, Yangi

Zellandiya oq, rus chipor, yirik shinshilla, zotlarini murakkab chatishtirish va olingan oxirgi avlodlarni “o‘z ichida” urchitish natijasida olingan. Bunda Yangi Zellandiya oq zotini tez yetiluvchanlik, go‘shtdorlik belgisi, rus chipor zotining teri jun qoplarning tig‘izlik xususiyatlari mujassamlashgan.

Har qanday yangi quyon zotini yaratish va mavjud zotlarni takomillashtirish chorvachilik ilmda mavjud tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Shundagina seleksiya ishidan kutilayotgan maqsadga erishish mumkin.

Ma‘lumki, quyonlarni chatishtirishda, olingan avlodlar muhim nasl xususiyatlarini (mahsuldorligini) olish bilan birga, tug‘ilgan urg‘ochilarning foydali xususiyatlarini (chidamliligini) saqlab qoladilar. Qon singdirish chatishtirish quyonlarning mahsuldorligini oshirishning maqbul usuli hisoblanadi. Junki jarayon unchalik murakkablikdan iborat emas va har qanday toifadagi xo‘jalik subyektlarida amalga oshirish mumkin. Bunda har bir bo‘g‘in chatishtirishda erkak quyon yaxshilovchi sifatida bir xil zotdagi naslli erkak quyondan foydalaniladi. Yaxshilovchi zot esa urg‘ochi sifatida ishtirok etadi. Birinchi bo‘g‘in chatishtirishda sof xoldagi mahalliy urg‘ochi quyonlar chatishtiriladi, keyingi chatishtirishlarda esa birinchi chatirishdan olingan duragay avlodlar urg‘ochilari chatishtiriladi. Bu jarayon 3-4 yil davom etishi mumkin.

Quyonlarni chatishtirishning bu usuli xo‘jaliklarda boqiladigan quyonlarning yangi avlodlari mahsuldorligini oshiradi.

1-jadval

Duragay avlodning seleksion parametrlari

Yangi tug‘ilgan avlodlar zot xususiyatlari	Quyonchilikda seleksiya ishlarida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish qilish lozim
Semirish oxirida o‘rtacha 30-40% ga o‘sadigan yuqori tana vazni	Aniq juftlash sxemasi bo‘lishi kerak
Suyak vaznini oshirish orqali chidamlilik darajasini oshirish	Juftlash uchun erkak va urg‘ochi quyonlarni to‘g‘ri tanlash
Ozuqa samaradorligi yaxshilanadi (1 kg semirish uchun ozuqa sarfi kamayadi)	Juftlashda yaxshilovchi zot erkak quyonlarni nasl xususiyatlarini to‘g‘ri baholash
urg‘Ochilarning sut ishlab chiqarishi (sutdan ajratilgan quyonlarning vazni) 20-30% ga oshadi	Belgilarni avlodlarga berilishining genetik tamoyillariga e‘tibor qaratish
Pushtdorlik oshadi	Juftlash davrida erkak va urg‘ochi hayvonlarni to‘g‘ri oziqlantirish va saqlash (chunki oziqlantirish genetik imkoniyatni yuzaga chiqishida muhim omil sanaladi)
Quyonlarda reproduktiv yosh pasayadi	

Kaliforniya zot quyonlaridan foydalanib mahalliy quyonlarni mahsuldorligini oshirish maqsadida chatishtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda, olingan avlodlar mahalliy quyonlardan iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik va kasalliklarga chidamlilik kabi xususiyatlarni, Koliforniya zotidan esa yuqori mahsuldorlik va tez yetiluvchanlikni o'zida mujassamlashtirish maqsad qilib olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондаренко С. П. Содержание кроликов мясных пород. –АСТ-Сталкер, 2003. –218 с.
2. Бондаренко С. П. Содержание кроликов мясо-шкурковых пород. – АСТ-Сталкер, 2003. –218 с.
3. Бывальцев А. К., Вакульчук С.М. Промышленное кролиководство.